



**O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI VA JOSEF  
JAKOBNING "JACK AND BEANSTALK" (JEK VA LOVIYA POYASI)  
ASARLARINING TAHLILI**

**Sobirova Shahnoza**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti Xorijiy til va adabiyoti:

Ingliz tili yo'nalishi 4 - bosqich 408 - guruh talabasi

Ilmiy maslahatchi: **Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti Xorijiy til va adabiyoti

yuqori kurslar o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" va Josef Jakobsning "Jack and the Beanstalk" hikoyalari o'zlarining chuqur ijtimoiy, psixologik va axloqiy tahlillari bilan ajralib turadi. Har ikkala asar ham insonning ichki dunyosini, qarorlar va ularning oqibatlarini, shuningdek, ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq muammolarni o'rganishga qaratilgan. Ushbu asarlarda urush barcha insoniyatni sinagani va deyarli, barcha insonlar boshidan o'g'ir kunlar o'tgani bir oila misolida ko'rsatib berilgan bo'lsa, "Jack and the Beanstalk" hikoyasida esa, Jekning bir qarorda ko'rilgan jasoratli harakatlari va ularning natijalari tasvirlanadi. Bu asar orqali shaxsiy o'sish, motivatsiya, risklar va mukofotlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar yoritiladi. Ikkala asarni tahlil qilishning maqsadi — ular orqali shaxsiy va ijtimoiy kurashlar, axloqiy qarorlar va ularning oqibatlarini anglash, asarlardagi qahramonlarning ichki dunyosini va ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq muammolarni tahlil qilishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Urush, ijtimoiy tengsizlik, ichki kurash, jasorat, oila, sarguzasht, boylik, muvaffaqiyat.



Bilamizki, 1941-1945 yillar oralig'ida nafaqat bizning yurtda balki, dunyoning barcha mamlakatlarida og'ir judolik bo'lgan. Bu urush qanchadan qancha insonlarni yostig'ini quritdi, qanchadan qancha bolalarni yetimga aylantirdi, qanchadan qancha yuzlar bu urush yillarida tabassum nimaligini unitdi, hatto qarindoshlar bir-birlaridan yuz o'girishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, bu urush insonlarni yetti uxlab tushiga kirmagan falokatlarni olib keldi. Mashhur o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov aynan mana shu barcha insonlarning og'riqli nuqtasi bo'lmish, urush mavzusida o'zining mashhur "Urushning so'nggi qurboni" asarini yozdi. Urush haqida o'zbek va jahon adabiyotida misli ko'rilmagan darajada ko'p she'rlar, romanlar, hikoyalar va qissalar yozilgan.[1] Lekin ularning ichida O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi o'zgacha o'rin tutadi. Ingliz yozuvchisi Josef Jakobsning "Jack and the Beanstalk" hikoyalarida esa o'zini tutish va boylik unga berilgan sinovlardan qanday qilib o'tish, qullab quvvatlash orqali o'zini tiklash va mehr ko'rsatish kabi yo'sinlar ko'satib berilgan.

Shu o'rinda O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" asarini to'liq stilistik vositalar yordamida tahlil qilib izohlab chiqsak:

METAFORA (so'z yoki iboralarning ma'nosini o'zgartirib, boshqa bir soha bilan solishtirish):

1. **"Zamon qalqib ketdi"** – Bu zamonni o'zgarishini bildiradi.
2. **"Zinonining bir poyi to'nkarilib qolgan ekan"** - "Poyi to'nkarilib qolgan" - Nimaningdir beqaror yoki tartibsiz holatini tasvirlaydi.
3. **"Choy o'lib qopti"** - "O'lib qopdi" so'zi bu yerda "sovib qolgan" degan ma'noni anglatadi.

Asardagi Metonemiyalar: Ushbu metonimiyalar qism yoki obyektning kattaroq tushuncha yoki g'oya bilan bog'lash orqali ishlaydi va shu bilan kundalik narsalar yoki harakatlar orqali chuqur ma'no tuyg'usini uyg'otadi.[2]

1. **"Shoikrom uyqu elita boshlagan ko'zlari bilan"** - "Uyqu elita" ko'zlar - uyqu kelgan degan ma'noda kelgan ko'zi uyquga to'lgan.



2. **"O'sha xudo bexabarlardan"** - "Xudo bexabarlardan" – g'ofil yoki johil odamlarni nazarda tutadi.
3. **"Ayvon labiga cho'qqayib o'tirgancha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan"** - "Cho'qqayib" so'zi "bukchayib" ma'nosida ishlatilgan.

Simile (taqqoslash): O'xshatish - bu ikki xil narsani "kabi", "o'xshash" yoki "shunday" kabi bog'lovchi so'zlar yordamida so'zni boshqa so'z bilan solishtiruvchi nutq shaklidir. [4]

1. **"Ko'zlari shunday o'qday bo'lib ketgan"** - O'xshatish: "O'qday" (o'q kabi) ko'zning o'tkirligi yoki shiddatini o'qning o'tkirligiga qiyoslaydi.
2. **"Mavhum keldi, sal o'sha daraxtdek suqilib ketgan"** - O'xshatish: "Daraxtdek" (daraxtga o'xshab) predmetning turishi yoki shaklini daraxtning mustahkamligiga qiyoslaydi.
3. **"Shoikromning qo'llari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi"** – "tars-tars yorilib ketgan" bu orqali uning jismoniy xolatini tasvirlaydi.

"Realiya – bu bir xalqning hayotiga (hayoti, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti) xos bo'lgan va boshqa xalqqa yot bo'lgan, milliy va (yoki) tarixiy bo'lgan ob'ektlarni nomlovchi so'zlar (va iboralar) bo'lib, ular qoida tariqasida tarjima qilinadi, boshqa tillarda aniq ma'nolar (ekvivalentlar) yo'qligi sabab umumiy asosda tarjima qilinishi mumkin emas va asarda ishlatilgan realiyalar quyidagilar:

1. **"Zog'ora non"** - Ko'pincha ovqat bilan birga beriladigan nonning bir turi.
2. **"Beshik"** – O'zbekona oilaviy hayotga oid realiya, chaqaloq uchun mo'ljallangan buyumni tasvirlaydi.
3. **"Ayvon"** - an'anaviy ayvon yoki ayvon, odatda O'rta Osiyo uylarida, ayniqsa qishloq joylarida joylashgan.
4. **"Sandal"** - An'anaviy yog'och yoki bambukdan yasalgan stul turi, ko'pincha hovlilarda o'tirish uchun ishlatiladi.



Bu yerda ingliz tilida berilgan tahlil natijalarini ko'rsatamiz. "metonymy", "simile", "zeugma", "pun" va "realia" kabilar ushbu asarda tahlil ostiga tortilgan:

Metonymy (Using a related term to represent something else):

1. **"Milky-white"** – The cow is referred to by its name, which is a symbolic representation of the family's livelihood.
2. **"Grind his bones to make my bread"** – Here, "bread" is a metonym for food in general, especially the food the ogre would eat (the boy's flesh).
3. **"The blood of an Englishman"** – Englishman," "blood" is used as a metonym for a human being, specifically an Englishman.

Simile (Comparing using "like" or "as"):

1. **"The beanstalk ran up just like a big ladder."** - Compares the beanstalk's shape to a ladder.
2. **"He climbed down like a house on fire."** - Compares Jack's rapid descent to something urgent or fast, like a fire.
3. **"He was as hungry as a hunter."** - Jack is so hungry that the comparison to a hunter conveys a deep, primal need for food.

Zeugma (One word governs or modifies two or more words in different senses):

1. **"He took the cow's halter in his hand, and off he started."** - The word "took" applies both to the halter (literal) and Jack's departure (figurative).
2. **"Well, Jack, and where are you off to?"** - "Off" is a zeugma because it refers to both Jack's literal departure and the man's metaphorical gesture of asking him where he's going.

Realia (Real-world references or culturally specific items):

1. **"Market day"** – Refers to a typical day when people gather to trade and sell goods, representing rural life.



2. **"The golden hen"** – A culturally significant object representing wealth and prosperity, and something that could have been part of a traditional fairy tale setting.
3. **"The beanstalk"** – Refers to a mythical but tangible object in folk tales, reflecting the agricultural environment and magic at play in the story.
4. **"The golden harp"** – A real-world object (a musical instrument), but with magical qualities in the story.

Alliteration (in the text are words that begin with the same consonant sound in close proximity).

1. **"Take that!"**

2. **"Sad and sorry"**

3. **"Sun was shining"**

4. **"Big beanstalk"**

Repetition (In the passage you provided, where words, phrases, or sounds are repeated for emphasis, rhythm, or narrative effect:)

1. **"What shall we do, what shall we do?"**

2. **"Climbed, and he climbed and he climbed"**

3. **"Take that! take that! take that!"**

Xulosa qilib aytganda, bu urush barcha insonlarni qiyin vaziyatga solib ularni birma-bir elakdan o'tkazdi. Kimdir bu sinovlardan o'ta olmadi, kimdir bu sinovlardan o'ta oldi. Kimdir odamiyligicha qoldi, kimdir iymondan yuz o'girdi. Bu urush o'zidan ancha yiroqda yashayotgan odamlarga ham ta'sir qilmay qoladi. Keyingi tahlil ostiga olingan "Jack and the Beanstalk" hikoyasida esa, Jekning bir qarorda ko'rilgan jasoratli harakatlari va ularning natijalari asar orqali shaxsiy o'sish, motivatsiya, risklar va mukofotlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar, ijtimoiy kurashlar, axloqiy qarorlar va ularning oqibatlarini anglash, asarlardagi qahramonlarning ichki dunyosini va ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq muammolarni uchratish mumkin. Har ikkala asar tahlil jarayonlarida stilistik vositalardan metonemiya, metafora, realiya, takrorlanish, Zeugma, Pun, O'xshatish kabi vositalarni ko'rish mumkin. [3]



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdurahmonov, I., "Adabiyotshunoslikka kirish", Toshkent: O'qituvchi. (2005).
2. Akhmedov, N., "Metafora va uslublar: Nazariya va amaliyot", Toshkent: O'qituvchi. (2010).
3. Shakarov, A., "Adabiyotda stilistika va uslublar", Toshkent: Akademnashr. (2012).
4. Tayyorbekov, M., "Adabiyot va uslublar tahlili", Toshkent: O'qituvchi. (2008).
5. Tafakkur.net, Toshkent, 2017